

“AYOL KUCHI – IQTISOD KUCHI: MEHNAT BOZORIDA GENDER TENGLIGINING YANGI DAVRI”

Abdug‘afforova Shodiyaxon Yodgorbek qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro munosabatlar fakulteti 1-bosqich talabasi
abdugafforovashodiyaxon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ayol kuchining iqtisodiy kuchga aylanish jarayonini yoritadi. Maqolada ayollarning mehnat bozoridagi o‘rni, gender tengligining iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatlari hamda zamonaviy islohotlarning ayollar bandligiga ta’siri tahlil qilinadi. Unda ayollar salohiyatining iqtisodiy o‘sishi, innovatsiyalar va ijtimoiy barqarorlikni rivojlantirishdagi strategik vazifalari yoritilgan. Shuningdek, mehnat bozorida mavjud to‘siqlar – ish haqi tafovutlari, kasbiy segregatsiya va rahbarlik lavozimlarida ayollar ulushining pastligi – statistik ma’lumotlar va xalqaro tajriba asosida ko‘rib chiqiladi. Maqola gender tengligini kuchaytirish bo‘yicha samarali siyosiy choralarni taklif etar ekan, ayol kuchi – iqtisod kuchi tamoyilining yangi davrdagi ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslaydi.

Kalit so‘zlar: gender tengligi, O‘zbekiston iqtisodiyoti, ayollar bandligi, mehnat bozori, ayollar iqtisodiy faolligi, ish haqi, kasbiy segregatsiya, islohotlar, ayollar huquqlari, imkoniyatlar, zamonaviy bandlik, ayol kuchi – iqtisod kuchi.

Аннотация: В статье рассматривается процесс трансформации женской силы в экономическую на новом этапе развития Узбекистана. Анализируется роль женщин на рынке труда, значение гендерного равенства в экономическом развитии и влияние современных реформ на занятость женщин. Подчеркивается стратегическая роль женского потенциала в экономическом росте, инновациях и социальной стабильности. На основе статистических данных и международного опыта рассматриваются существующие барьеры на рынке труда: разрыв в заработной плате, профессиональная сегрегация и низкая доля женщин на руководящих должностях. В статье предлагаются эффективные меры политики по укреплению гендерного равенства, а также научно-теоретически обосновывается важность принципа женской силы – экономической силы в новую эпоху.

Ключевые слова: гендерное равенство, экономика Узбекистана, занятость женщин, рынок труда, экономическая активность женщин, заработная плата, профессиональная сегрегация, реформы, права женщин, возможности, современная занятость, женская сила – экономическая сила.



Annotation: *This article examines the process of transforming women's power into economic power at a new stage of development in Uzbekistan. The article analyzes the role of women in the labor market, the importance of gender equality in economic development, and the impact of modern reforms on women's employment. It highlights the strategic roles of women's potential in economic growth, innovation, and social stability. It also examines the existing barriers in the labor market - wage gaps, occupational segregation, and the low share of women in leadership positions - based on statistical data and international experience. The article proposes effective policy measures to strengthen gender equality, and scientifically and theoretically substantiates the importance of the principle of women's power - economic power in the new era.*

Keywords: *gender equality, economy of Uzbekistan, women's employment, labor market, women's economic activity, wages, occupational segregation, reforms, women's rights, opportunities, modern employment, women's power - economic power.*

Zamonaviy dunyoda iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri – inson salohiyatini to‘liq ishga solishdir. Ayollar mehnat bozorida faol ishtirok etishi mamlakatlar iqtisodiyotining yuksalishi va erkaklar bilan teng imkoniyatlar berilishi tufayli ish jarayoni ham samarali, yakuni tezroq amalga oshadi., ya’ni mehnat va iqtisodiyot bozori ancha o’sadi. Mehnat bozorida gender tengligi – ayollar va erkaklarning ishga kirish, kasbiy rivojlanish, maosh olish va rahbarlik lavozimlariga ko’tarilish imkoniyatlarining teng bo’lishini anglatadi.

Shuningdek, bu gender tengligi tushunchasini har kim to’g’ri qabul qilmaydi. Ko’pchilik insonlar Feminizm bilan ma’nosi teng deb bilishadi[1, Womenkind Worldwide]. Ammo ularning o’rtasida farq mavjuddir. Gender tengligida ayollar va erkaklarning faoliyatiga nisbatan teng imkoniyat berish va yaratish demakdir. Bunda ayollar erkaklarga nisbatan ustunlik degan tushuncha ma’nosida ishlatilishi noo’rindir. Feminizm esa ayollar siyosatda ham, jamiyatda ham erkaklardan ustunroq va hukumron qatlam singari bo’lish demakdir. Bu ikki xil tushunchalarning bir-birlariga moslik jihatlari mavjud emas. Gender tengligi orqali ishchi kuchining ko’pligi, samaralilikligi ta’minlanadi. Gender tengligi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ijtimoiy adolat, jamiyatda farovonlik va siyosiy jihatdan barqarorlikni yo’lga qo’yishga xizmat qiladi. Masalan, Skandinaviya davlatlarida ayollar mehnatga to’liq jalb etilgan, maosh va rahbarlik lavozimlarida tenglik saqlanadi[2; 1.2-1.8: 11-42]. Shuningdek, davlatimiz O’zbekistonda ham so’nggi yillarda gender tengligini ta’minlash bo’yicha bir qator choralar va islohotlar amalga oshirilmoqda[3; SQ-297-IV-son].





Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini oshirish va gender tengligini ta'minlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ayollar nafaqat oila tarbiyasida, balki jamiyat va iqtisodiyot rivojida ham muhim rol o'ynamoqda. Ayollar ko'p va samarali ishlagan sari, mamlakat iqtisodi ham barqaror rivojlanadi. Shu sababli davlat ayollarning bandligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash va teng imkoniyatlar yaratish uchun ko'plab ishlarni amalga oshirmoqda. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda ayollar asosan ta'lim, sog'liqni saqlash va xizmat ko'rsatish sohalarida ishlaydi.

Bu sohalar jamiyat uchun juda muhim bo'lsa-da, ish haqi nisbatan past bo'lishi bilan ajralib turadi. Ayni paytda IT, sanoat, qurilish va muhandislik kabi yaxshi daromad keltiradigan sohalarida ayollar kam. Buning sababi sifatida jamiyatdagi eski qarashlar, ayollarga nisbatan kasbiy cheklovlar va yetarli sharoitlarning yo'qligini ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, mehnat bozorida ayollar erkaklarga nisbatan kamroq ish haqi olayotgan holatlar ham uchraydi.

Bu ayollarning iqtisodiy mustaqilligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yana bir muhim muammo – ayollarning rahbarlik lavozimlariga chiqishi qiyinligidir. Ko'plab ayollar bilim va tajribaga ega bo'lsa ham, yuqori lavozimlarga ko'tarilish imkoniyatiga ega emas. Bundan tashqari, uy-ro'zg'or ishlari va farzand tarbiyasi ko'pincha ayollar zimmasida bo'lib, bu ularning ishlash va rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston davlatida so'nggi yillarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ayollarni qo'llab-quvvatlash uchun "Ayollar daftari" tizimi joriy etildi[4, 1-band: ПФ-60-сОН]. Bu tizim orqali ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga duch kelgan ayollar aniqlanib, ularga ish bilan ta'minlash, kasbga o'qitish va moddiy yordam ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Minglab ayollar aynan shu tizim orqali yangi ish joylariga ega bo'ldi yoki o'z biznesini boshladi.



Bundan tashqari, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun davlat tomonidan imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratilmoqda. Oilaviy tadbirkorlik dasturlari orqali ayollar tikuvchilik, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida o'z faoliyatini yo'lga qo'ymoqda. Bu nafaqat ayollarning daromadini oshirmoqda, balki yangi ish o'rinlarining yaratilishiga ham xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda ayollarni zamonaviy kasblarga o'rgatish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Hududlarda kasb-hunar markazlari tashkil etilib, ayollar IT, dizayn, buxgalteriya, tikuvchilik va boshqa yo'nalishlarda bepul o'qitilmoqda.

Shuningdek, qizlarning oliy ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida grantlar soni oshirildi. Bu esa kelajakda malakali ayol mutaxassislar sonining ko'payishiga olib keladi. Ayollarga qulay mehnat sharoitlarini yaratish ham davlat siyosatining muhim qismi hisoblanadi. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalari, ya'ni bolalar bog'chalari soni sezilarli darajada ko'paydi. Bu yosh farzandli ayollarning ishga chiqishini osonlashtirdi. Shuningdek, ayrim tashkilotlarda masofaviy ish va moslashuvchan ish vaqti joriy etilmoqda, bu esa ayollarga ish va oilani birgalikda olib borish imkonini bermoqda.

O'zbekiston taraqqiyotini tahlil qilganda, ayollarning iqtisodiy faol ishtiroki mamlakat rivojining muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Jamiyatda ayollarning faqat oila doirasidagi emas, balki ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ta'lim va tadbirkorlik sohalaridagi roli ham tobora kuchayib bormoqda. Ayollarning faol ishlashi mamlakatda daromadlar oshishiga, yangi ish o'rinlari yaratilishiga va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiladi. Hozirgi paytda ayollar duch kelayotgan ayrim qiyinchiliklar mavjud. Jumladan, yaxshi ish topish, zamonaviy kasblarni egallash, rahbarlik lavozimlariga chiqish va ish bilan oila o'rtasida muvozanatni saqlash hamma uchun ham oson emas. Ayrim hududlarda imkoniyatlarning cheklanganligi ayollarning to'liq ishlashiga to'sqinlik qilmoqda. Shunga qaramay, bu muammolar bosqichma-bosqich hal etilmoqda.

O'zbekistonda ayollarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan aniq choralar ko'rilmogda. Ayollar bilan manzilli ishlash yo'lga qo'yilib, ularni kasbga o'rgatish va bandligini ta'minlash ishlari kuchaytirildi. Tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagidagi ayollarga moliyaviy va tashkiliy yordam ko'rsatilmoqda.

Ta'lim sohasida qizlar uchun imkoniyatlar kengayib, kasbiy bilim olishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, bolalar parvarishi bo'yicha yaratilayotgan qulayliklar ayollarning ishga chiqishini yengillashtirmoqda.

Umuman olganda, O'zbekistonda ayollar uchun yaratilayotgan sharoitlar ularning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayon izchil davom etsa, ayollar jamiyat hayotida yanada faol ishtirok etadi va mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadi.



FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Feminizm tushunchasi, 1960-yillar, ayol yozuvchilar tomonidan vujufga keltirilgan ayollar harakati, asosan AQSH va G'arbiy Yevropa davlatlarida siyosiy kuchga kirgan – Womenkind Worldwide, <https://iwda.org.au>
2. Skandinaviya mamlakatlari, Norway, Sweden, Finland, gender equality. – Global Outlook, <https://weforum.org>
3. Gender tengligi bo'yicha qarori, SQ-297-IV-sonli, strategiyasi, 2025-2030-yy. – <https://lex.uz> , <https://president.uz>
4. Ayollarning ish bilan ta'minlash va yordam ko'rsatish, president farmoni - <https://lex.uz/uz/docs/5932671#5933268> , <https://gov.uz>
5. O'zbekistonda gender tafovutlari, ayollar va erkaklar o'rtasidagi mehnat bozoridagi farqlar, O'zbekiston - <https://gov.uz> va Jahon banki tahlili – <https://worldbank.org>
6. Gender tenglik bo'yicha Milliy Strategiya 2030-yilgacha dasturi, gender indeksi – <https://genderindeks.uz>
7. <https://uzgender.uz> , <https://stat.uz> va Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi – <https://e-gov.uz>

